



TELEVIDENIEDA MILLIY QADRIYAT

Kamola Sobitjonova

Toshkent shahar o‘simliklar karantini va
himoyasi boshqarmasining matbuot kotibi rahbari

Annotatsiya

“O‘zbekiston” telekanalida milliy qadriyatlar mavzusidagi ko‘rsatuvlar tahlil qilingan. O‘zbek milliy qadriyatlar tarixi, ijtimomiy ahamiyati va hozirgi davrdagi holati ko‘rsatuvlarda o‘rganilgan. Milliy qadriyatlar mavzusida ko‘rsatuvlar tayyorlashda jurnalist mahorati va dunyoqarashiga baho beriladi. Ilmiy ishda milliy qadriyatlarimiz asosida yaratilgan adabiyot va san‘at asarlari yoshlarimizni tarbiyalashdagi ahamiyatiga qaratilgan. Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib, mamlakatimizga ommaviy madaniyat ko‘rinishdagi ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qadimiy meros, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bugunning dozarb vam muhim masalalaridan biriga aylandi. Milliy mentalitetimiz, urf-odatlarimizga zid bo‘lgan videofilm, pornografik, audiovizual materiallarning kirib kelayotgan bir paytda mustaqillik tufayli unitilayotgan milliy qadriyatlarimizga e‘tibor qaratilib, uning omma orasidagi targ‘iboti kuchaydi. Ayniqsa, OAV ichida o‘zining jonli ovozi, tasviri va boshqa sintetik xususiyatlari bilan ta’sirchanhisoblangan televideniyeda bu sohada samarali ishlar olib borilmoqda. Dissertatsiya obekti "O‘zbekiston" telekanali orqali milliy qadryatlarga bag‘ishlab namoyish etilgan ko‘rsatuvlarni tahlil qilgan holda, bu boradagi yutuqlar haqida batafsil so‘z yuritadi. Shuningdek, u yechimini kutib yotgan muammolar haqida ham atroflicha o‘rganib, ko‘rsatuvlar tahlili kuzatishlari asosida ma’lum kamchilik mavzuni yoritish borasidagi muammolarni bartaraf etish uchun yana qaysi jihatlarga e‘tibor berish lozimligi haqidagi taklif, tavsiyalarni beradi.

Kirish

So‘nggi yillarda televidenieda milliy qadriyatlarning yoritilishi mustaqillik g‘oyalari asosida shakllana boshladi. Odatda har qanday telekanalda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida dastur va ko‘rsatuvlar rejasi tuziladi. Ushbu qadriyatlar zamidra paydo bo‘lgan g‘oyalar asosida ko‘rsatuvlarning



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

ma'naviy yuksakligi ortadi. Telekanalda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rganilishi mavzu jihatdan dolzarbligi ham shunda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimiz o'z oldiga ezgu va yuksak maqsadlarni qo'yib, farovon hayot kechirib kelmokda. Istiqlool yillarida bosib o'tilgan tarixiy yo'l, barcha sohalarda ko'lga kiritilgan ulkan yutuq va marralar mamlakatimizning barqaror taraqqiyot yo'lida ildam qadam bosayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'z maruzalarida shunday deydi: " Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchi iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyat".¹ Shunday ekan, har bir zamondoshimizning ongi va qalbida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish muhim ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, televidenie dasturlarida yangi loyiha, ko'rsatuvlar, shular qatorida milliy qadriyatlarimiz haqida qator turkum ko'rsatuvlar paydo bo'ldi. Bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlar barcha uchun umumiy mezon bo'lib qolganini turli sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, sayyoramizning dunedagi barcha kishilar uchun, ularning irqi, millati, e'tiqodi, va boshqa tabiiy- tarixiy hamda ijtimoiy belgilaridan kat'iy nazar, eng umumiy va shu bilan birga, cheksiz koinotdagi mo'jazgina makoni ekani tobora yaqqolroq ko'rinishga boshlangani ikkinchidan, dunyodagi ijtimoiy xilma-xillik, siësiy va mafkuraviy rang-baranglik, turli xil ehtiyoj, qiziqish, maqsad, faoliyatning taraqqiyot talablariga mos keladigan eng umumiy ma'naviy mezonlariga muhtojlik sezila boshlangani uchinchidan, dahshatli kirg'in qurollari, yadro urushi, ekologik buxron va ma'naviy tanazzul kabi tahdidlar bilan yuzma-yuz kelish natijasida insoniyat kelajagi, sayyoramiz aholisi umumiy genofondining taqdiri xavf ostida qolgani va yana bir qator boshqa sabablar borki, ular nafaqat milliy qadriyatlar, balki umuminsoniy qadriyatlar ham "Ommaviy madaniyat tahdidi ostida qolayotganini ko'rsatadi. Shu sababdan ham milliy va mavzusi O'zbekiston ommaviy axborot umuminsoniy qadriyatlar vositalarida yetakchi mavzulardan biriga aylandi. Teleekranlarni kuzatar ekanmiz, nafaqat xalqimizga xos milliy



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

qadriyat va an'analarimiz haqidagi, balki tinchliksevarlik, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, do'stlik-hamjixatlik singari umuminsoniy qadriyatlarni ulug'laydigan ko'rsatuvlar ko'plab topiladi. Zero, umuminsoniy qadriyatlar zahirida ham vatanparvarlik, o'z xalqiga sidqidildan xizmat qilish kabi tushunchalar yotadi. Dunyodagi hech bir millat yoki elat buzg'unchilik, urush- janjal, jaholatni oqlamaydi, dunyodagi hech bir inson urush arimaydigan joyda yashashni istamaydi. Ayni shu o'rinda milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir nuqtada tutashadi. Mazkur tushunchalarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi esa odamlarning ma'naviy darajasini ko'tarib, ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yanada mustahkamrok ildiz otishiga turtki bo'ladi. Qadriyatlar markazida esa inson omili turadi. Dunyo yaralgandan buyon davom etayotgan ezgulik va yovuzlikning boqiy kurashi ham aslida qadriyatlar vositasida kechadi. Chunki, dunyodagi yovuz kuchlar biror davlatni maxv etishni maqsad qilarkan, avvalo shu xalkni milliy o'zligidan ayirishga, yoshlarini qadriyat va an'alaridan uzoqlashtirishga urinadi. Albatta, ongni orqali maqsadga erishishni ko'zlaydi. Chunki, qurol-yarog', xarbiy yurishlar bilan egallab bo'lmaydigan sarxادلarni ommaviy axborot vositalari orqali, yanada aniqrog'i, so'z, axborot orqali egallash mumkin. Shu bois, inson avvalo o'z mustaqil fikriga ega bo'lishi, kay vaziyatda qanday qaror qabul qilishni yaxshi bilsagina tahlikali holatlarda ham o'zini yuqotmaydi, salbiy ta'sirlarga qarshi kurasha oladi. Ayni shu kurashish hissini ommaviy axborot vositalari orqali shakllantiriladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Quchqorov V. Milliy o'zlikni anglash va barqaror tarakkiyot. T.: Sharq, 2010, 144 bet.
2. Mirziyoev.Sh.M Yuksaltirish bo'yicha yeg'ilishidan "qalampir.uz" 2021. 19 yanvar